

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA 4 “K” MODULI QO‘LLASH USULI

Fozilova Odina Nabiyevna

Farg‘ona Davlat Universiteti, f.f.b.f.d (PhD), dotsenti

abobakirovaodina78@gmail.com. (+99891)045 36 76

ORCID:0009-0003-7616-7612

KIRISH

Maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadi qilib olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr, PF-152 Farmoni “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

XXI asr ko‘nikmalari va turlari haqida umumiy tushuncha. 4K - kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlari, ulardan ko‘zlangan maqsad va vazifalar talab etadi.

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida kichik va o‘rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari muhim sanaladi.

Erta yoshdagi bolalarni ta’lim sohasini o‘rganish, ularning dinamikasi tasavvur, qiziquvchanlik va ishtiyoqining shakllantirishning ta’sir doirasida tarbiyachi faoliyati turadi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar ongini rivojlanishi, ta’lim natijalarini ijobiy bo‘lishi uchun innovatsion metodologiyalarni o‘rganishi zarur. Ushbu metodologiya zaminida o‘yinlarning integratsiyasi jonli va samarali ta’limni rivojlantirishga asoslangan istiqbolli yo‘l va usullarini qo‘llash zarur.

Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishda bolalarda kommunikativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda kollobarativ ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan bo‘lib, takomillashga “Ilk qadam” davlat dastur maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘ynab o‘rganishni nazarda tutib, oy va hafta mavzulari

bolalarni borliq haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Rivojlanish markazlari bolalarda tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san’at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini ifodalaydi. Qurilish yasash va matematika markazi, qurish-yasash va elementar matematika ta’limiy faoliyatni, syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi, badiiy adabiyot ta’limiy faoliyat va ijodiy o‘yinlarni ifodalasa, til va nutq markazi, nutq o‘stirish va savodga o‘rgatish ta’limiy faoliyatini, ilm fan va tabiat markazi atrof-olam va tabiat bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatini, san’at markazi rasm chizish, loy yoki plastilin hamda applikasiya ta’limiy faoliyatlari bilan integrallashgan.

Ta’limiy rivojlantirishda maktabgacha ta’lim kontsepsiyasiga muvofiq pedagog L.S.Vigotskiyning quyidagi nazariyasiga tayaniladi “Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo‘ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so‘ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi” degan fikrlari rivojlantiruvchi markazlar faoliyatida o‘z samarasini ifodalaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida har bir guruhlar uchun bola yosh xususiyatidan kelib chiqib “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’im jarayonini mavzuli rejalashtirish” nomli o‘quv qo‘llama asosida rivojlantiruvchi markazlarda olib boriladigan ta’lim jarayoni ifodalangan

Masalan, katta guruh sentiyabrni birinchi haftasi “Mening qadrdon O‘zbekistonim”, mavzu: «Qurilish materiallaridan shahar quramiz».

Maqsad: Qurilish materiallari va turli kattalikdagi gishtchalardan mustaqil uylar qura oladi.

Kerakli jihozlar: qubiklar, geometrik shakllar, dekorativ o‘simliklar, shahar qurinishi tasvirlangan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Mening shahrim» mavzusidagi suratlarni kuzatish.
2. Shahar qurilishi rejasini tuzish.
3. Mustaqil qurish ishlarini amalga oshirish.
4. Do‘sti bilan suhbatga kirishish.
5. Do‘stining ishlarini taxlil etish va rag‘batlantirish.

Qushimcha: Tarbiyachi qurilish ishlarini bezatishda mayda qushimchalar (o‘yinchoqlar, mashinachalar, gulchalar)dan foydalanishni taklif etish.

Alohida e’tibor qaratiladi: Jamoada ishlash malakalari, shahar ko‘rinishini tasavvurida aks etishi.

Bu jarayon orqali bolalar matematik tasavvurlarni shakllantirish ta’limiy faoliyatidan olgan bilimlarini ifodalaydilar. O‘lchov, son sanoq, fazoviy hajm, shakl. Yana jarayonda bola nutq o‘stirish: (tovush madaniyati, bog‘lanishli nutq, nutqni gramatik tuzilishini shakllantirish va lug‘at boyligini faollashtirish), sensor tarbiya: (eshitish, ko‘rish, hid bilish, qo‘l barmoq mayda matorikasi), tabiat bilan tanishtirish: (gulchalar, o‘simliklar va daraxtlar), atrof olam: (kasb, hunar, uy, mahalla, vatan), etika: (jamoada ishlash, tejamkorlik, tozalik), estetika: (go‘zallik), texnologiya: (ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikma), tasviriy faoliyat: (badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlik), jismoniy tarbiya: (irodaviy ruhiyat, harakat), kimyo: (bo‘yoq, plasmassa, taxta), chizmachilik:

(texnik detal va buyumlar) kabi bilimlarini egallashga qaratilgan. Bu albatta bolalarni uzliksiz ta’lim maktab ta’limiga sifatli tayyorlashni amaliy faoliyatini ifodalanadi.

Bu albatta ta’lim sifatini ko’tarib bolalarda kommunikativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda kollobarativ ko’nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va birinchi sinf o’quvchilari uchun turli xil ta’lim shakllari, shu jumladan, integral faoliyat asosida aniq faoliyat turlarini qo’llash, o’quv jarayonida bolalar o’zlarining tajribalaridan foydalanishlar uchun sharoit yaratadigan loyiha-tadqiqot faoliyatidan foydalanish, faoliyatni bolalarning kundalik (frontal, kichik guruhlar) hayoti, ularning mustaqil (o’yin, badiiy, konstruktiv va boshqa) faoliyati bilan o’zaro bog’liqligini ta’minlash, bolalar faoliyati mazmunini funksional ravishda simulyatsiya qilish amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida va boshlang’ich maktabda ham rivojlantiruvchi muhitni qo’llab quvvatlash, bolalarda fikrlash, tasavvur (xayolot), qidiruv faoliyatini faollashtiradigan usullar, ya’ni o’rganishda muammolilik elementlarini yanada kengroq qo’llash, o’yin texnikasidan kengroq foydalanish, hissiy jihatdan ahamiyatli vaziyatlar, mustaqil amaliy faoliyat uchun sharoitlar yaratish, katta maktabgacha yoshdagi guruhlarda va boshlang’ich maktabning 1-sinfidagi darslarida bolalar faoliyatining barcha turlari, bolalarning muloqot shakllari o’zgartirishni amalga oshirish belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi bolalarda tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo’yish, asosiy fanlarni o’zlashtirish, predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o’rnatish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini qulay yo’llar orqali tushinish imkonini beradi. Bu albatta maktabgacha ta’lim tashkilotlari rivojlantiruvchi markazlari faoliyatida amalga oshirilib, ularni tezroq o’rganish imkonini, ijtimoiy va interaktiv bo’lishi, mehnatsevar va sabrli bo’lishiga yordam beradi. STEAM ta’lim texnologiyasi asosida o’quv jarayoni amalga qo’llash, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari”ni bajarish orqali 1-sinf o’quvchilarida davlat ta’lim standartlarini amalga oshirishdagi uzviylik va uzliksizlikni ta’minlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr, PF-152 Farmoni “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”. Lex.UZ on-line.

2. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’im jarayonini mavzuli rejalashtirish” T:, 2018

3. Texnologiya fani konsepsiyalari va milliy o’quv dasturi. T: 2021.- 47 b.

4.O.Абобакирова. Общество с ограниченной ответственностью Издательство. Молодой ученый–2016– 734-736 С.

5.O.Абобакирова. Формирование у старших дошкольников эстетических чувств средствами кукольного театра. Молодой ученый, 2018. – 148-150 С.

6.O.Fozilova. Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondoshuv usullari. FarDU.ILMIY XABARLAR. 2022.– 363-364

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Fozilova Odina Nabiyevna

FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, bunda ularning rivojlanish sohalari bo'yicha nazariy va amaliy jarayonlarni mahorat bilan yuritish tarbiyachi shaxsiga, uning kasbiga mas'uliyat va majburiyat hissini yuklaydi. Ta'kidlash joizki, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi muhit, ta'lim-tarbiya sifati bilan bir qatorda pedagoglarning o'zaro hamkorligini ham nazarda tutadi. Bolaning rivojlanish sohasi indikatorlarini o'zlashtirishi, bu jarayonda yuzaga kelayotgan oqsash, pasayish yoki qandaydir kamchilik kuzatilgan yoki aniqlangan taqdirda MTTda faoliyat yuritayotgan tor doira mutaxassislari – jismoniy tarbiya yo'riqchisi, musiqa rahbari, psixolog, logoped, defektologlarning pedagogik aloqasi bir vaqtning o'zida ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchiga qulaylik, samaradorlik, muammoga echim yo'lini taqdim etadi.

Pedagogik hamkorlik – bu bola tarbiyasi va ta'limida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning (ota-ona, pedagog, psixolog, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tashkilotlari) o'zaro teng, izchil va maqsadga yo'naltirilgan hamjihat faoliyatidir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik hamkorlikning o'z o'rnini va ahamiyati alohida. Boisi bolaning shaxsiyati, uning o'ziga xosligi, o'zini o'zi qadrlashi birinchi o'ringa qo'yiladigan, har birining subektiv tajribasi birinchi o'ringa qo'yiladigan, so'ngra ta'lim mazmuni bilan muvofiqlashtirilgan ta'lim turi qatorida tor doira mutaxassislarning ishtiroki bola shaxsiga yo'naltirilgan ijobiy va ijodiy ta'sirning nazariy va amaliy jihatlari o'zida uyg'unlashtiradi.

Pedagogik hamkorlik o'z tasnifiga ko'ra, yakka tartibda hamda jamoaviy ishlash kabilarga bo'linadi. Bolaning kommunikativ, o'yin, ijtimoiy-hissiy hamda bilish sohalari kabi tayanch kompetensiyalari va bu bo'yicha rivojlanish sohaslarining indikatorlaridan kelib chiqib, bolaning yoshi mos tarzda yo'naltirilishi zarur bo'lgan faoliyatlar o'z o'rnida va me'yorida qo'llanilishi bola shaxsi rivojlanishida, uning maktabgacha tayyorgarlik natijasining ijobiy tomoniga amaliy erishishni belgilaydi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim dasturlari, innovasion usul va yangicha metodlarning o'z samarasini berishida ham aynan mazkur pedagogik hamkorlikning ahamiyati kattadir. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlarga tatbiq etilayotgan, ta'limiy jarayonlarga tobora kirib borayotgan o'zgarish va yangilanishlar pedagogdan o'ziga xos kreativlik, kompetentliklarni talab etar ekan, bu o'rinda yana bir muhim jihat – MTTda yo'lga qo'yilishi zarur va shart bo'lgan pedagogik hamkorlikka erishishni nazarda tutadi.

Pedagogik hamkorlikning o'ziga xos jihati shundaki, u bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiyaviy jarayonlariga ta'sir etish barobarida rivojlanishda, ma'lum indikatorlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan tarbiyalanuvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanish vazifasini ham bajaradi. Nutqida nuqsoni sezilayotgan, jismoniy rivojlanishda

yoshiga mos tarzda ko‘rsatkichlarni bajara olmayotgan yoki diqqat, xotirasida qandaydir salbiy o‘zgarish kechayotgan bolalar bilan ish olib borishda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, psixolog, logopedning shaxsiy ish rejasiga muvofiq maqsadga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi faoliyati sababli bolani maktabga tayyorgarligi darajasini to‘la ravishda tayyorlik holatiga etkazish mumkin.

Pedagogik hamkorlik a‘zolarining MTT hayotidagi ishtirokini quyidagicha tasniflash mumkin:

- O‘quv yili davomidagi faoliyat
- Ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlardagi ishtirok
- Kuzatuv hamda pedagogik kengashlardagi faollik
- To‘garak yoki qo‘shimcha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish
- Yozgi sog‘lomlashtirish davridagi metodik maslahatlar beruvchi

Pedagogik hamkorlikdagi ishlash MTT direktori rahbarligi va nazorati ostida guruh tarbiyachilarining xabardorligi va o‘z o‘rnida tavsiyasi bilan amalga oshiriladi. Qayd etish joizki, MTTda faoliyat yuritadigan tor doira mutaxassisleri bo‘lgan pedagogik hamkorlik a‘zolari o‘zi uchun qulay muhit: alohida xona, o‘quv jihozlari, metodlik qo‘llanmalar va adabiyotlar, atributlar, ko‘rgazmali vositalar, umuman, o‘z yo‘nalishi va sohasiga doir materiallar bilan ta‘minlangan bo‘lishi zarur.

Unutmaslik kerakki, qulay muhitning o‘zi ham pedagogik hamkorlik a‘zolaridan kutilayotgan natijaning qay darajada bo‘lishiga ta‘sir etadi. Maxsus jihozlangan, bezatilgan, mutaxassisning kasbiy yo‘nalishlarini ifodalovchi har qanday element yoki predmet ushbu xonaga tashrif buyuruvchini ham, pedagogning o‘zini ham va eng muhimi mutaxassis uchun yo‘naltirilgan tarbiyalanuvchiga ijobiy motivatsion ta‘sir ko‘rsatadi.

Davlat maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchisi va xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta‘lim berishda ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda quyidagi metodlardan foydalaniladi.

1. Ko‘rgazmali metod.
2. Og‘zaki metod.
3. Amaliy metod.
4. O‘yin metodi.
5. Musobaqa metodi.

Tushunarlik va bolalarga yakka yondashish prinsipi bolaning yosh xususiyatlar imkoniyatlarini hisobga olishni hamda shu bilan bog‘liq ravishda uning kuchiga yarasha topshiriqlar belgilashni ko‘zda tutadi. Bola imkoniyatlari muayyan birlikdagi omillar bilan belgilanadi: jismoniy tayyorlanganlik me‘yorlari bo‘yicha sinash, vrach tekshiruvi, bevosita pedagogik kuzatish. Yakka yondashuv bolaning o‘ziga xos funksional imkoniyatlarini hisobga oladigan alohida ta‘sirlarni ko‘zda tutadi. Shu o‘rinda jismoniy tarbiya yo‘riqchisining faoliyatini olaylik. Bolalarga jismoniy ta‘lim va tarbiya berish jarayonida quyidagi didaktik-ta‘limiy prinsplar qo‘llaniladi:

- tizimlilik va izchillik, ongillik, mustaqillik va ijodiy faollik;

- ta’limning ko‘rgazmali og‘zaki va amaliy usullarini birga qo‘shib olib borish;
- tushunarlilik va individuallashtirish prinsipi;
- ta’limning frontal, guruh va yakka tarzdagi shakllari birligi, talabalarni tobora oshirib borish prinsipi.

Psixologning bolalar bilan yakka tartibda ishlashdagi yondashuvlarida maxsus so‘rovnomalar, testlar, muammoli vaziyatlar, boshqotirmali metodlardan foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Psixolog bu o‘rinda turli savollar berish orqali bola ruhiyati o‘zgarish, xotira va diqqatning rivojlanayotganlik darajasini tez ilg‘ab olgan holda, bolaning ushba holatiga mos va asta-sekinlik bilan rivojlantiruvchi usullarni qo‘llashga o‘ta boshlaydi. Bola bilan aloqa o‘rnatish va ixtiyoriy xulq-atvorning rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi Mazkur metodika L.Krasilnikova tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “ha” va “yo‘q demagin” deb nomlanadi. Ushbu metodikannig mazmuni mutaxassis (psixolg) va bola (tarbiyalanuvchi) o‘rtasidagi savol-javobga asoslanganidir. Ko‘rsatma: Biz sen bilan hozir bir o‘yin o‘ynaymiz. Men senga savollar beraman, sen ularga javob berasan. Lekin savollarimga “ha” va “yo‘q” degan so‘zlar bilan javob bermasliging kerak. Masalan, sendan “O‘yinchog‘ing bormi?” deb so‘rasam, sen “ha” demasdan “Menda o‘yinchoq bor” yoki “O‘yinchog‘im bor” deya javob berishing kerak. Yoki men sendan “Odamlarning qanoti bormi?” deb so‘rasam, sen “yo‘q” demay, “Odamlarda qanot yo‘q” deb javob berishing kerak, tushundingmi? Qaysi so‘zlarni aytmassliging kerak? Agar bola tushunmasa, ko‘rsatma qaytariladi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik hamkorlik pedagogning ham tarbiyalanuvchining ham ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan jarayon. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining qanchalik to‘liq va to‘g‘ri kechayotganini tahlil qiladigan, tahlillarga ko‘ra ma’lum xulosa chiqaradigan, lozim bo‘lsa, bolaning kelgusi kamoloti uchun qo‘shimcha rivojlantirish usullarini ishlab chiqadigan yoki shunday usullari tavsiya etiladigan yo‘nalishlardan biri desak adashmaymiz. Bolaning anatomik, fiziologik va ruhiy o‘zgarishlarini doimiy kuzatuv va nazoratda olib boruvchi MTT hamshirasi va tarbiyachilar bir qatorda maxsus soha yo‘nalishi egalari – jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, musiqa rahbari, psixolog, logoped, defektolog kabi mutaxassislarning amaliy sa’y-harakatlari bois 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning rivojlanishlaridagi me’yor va a’lo natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. B.B.Ma`murov. O‘quv qo‘llanma.; Toshkent: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2014.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Jalilova S.X., S.X. Jalilova, S.M. Aripova.: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma /. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017.
3. Maktabgacha pedagogika. F.Qodirova., Sh.Q.Toshpulatova., N.M.Kayumova. Darslik./–Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019 yil.